International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

TIL BOR – MILLAT BARHAYOT

Botirova Gulsevar
Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining jamiyat hayotidagi o‘rni, uni asrash va rivojlantirish masalalari tahlil etiladi. Muallif ona tiliga bo‘lgan ehtirom, milliy o‘zlikni anglash va tilni asrashda yosh avlodning o‘rni haqida fikr yuritadi. Maqolada tarixiy, huquqiy va ijtimoiy dalillar asosida tilning millat hayotidagi beqiyos ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, ona tili, ehtirom, qadriyat, milliylik, madaniyat.

Til har bir millatning ko‘zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. Tilni Onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o‘z onasini ko‘rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas.

Bugungi kunda tilimizning holati, uning taraqqiyoti va istiqboli barchani o‘ylantiradi. Millat bor ekan, uning tili ham barhayot bo‘ladi. Til insonning eng katta ma’naviy boyligidir. Bizga u beshikdaligimizdanoq onalarimizning allasi orqali singdirilib keladi. Shu sababdan ham “ona tili” deganda, mehr, ehtirom va g‘urur tuyg‘ulari uyg‘onadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda quyidagilarni alohida ta’kidlagan edilar: “Men bugun aziz bolalarimizga murojaat qilib, ulug‘ alloma, XX asr boshida olti tilli – o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug‘at tuzgan Is‘hoqxon Ibratning mana bu hikmatli so‘zlarini eslatmoqchiman: “Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir”. [1]

Afsuski, bugungi kunda dunyoda “o‘lik tillar” soni ortib bormoqda. Buning sababini ayrim olimlar ingliz, rus va boshqa yevropa tillarining ommalashuvida ko‘rishsa, boshqalar esa milliy qadriyatlarning zaiflashuvi bilan izohlashadi. Har ikkala fikrda ham jon bor. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o‘zbek tilining maqomi mustahkam o‘rin olgan. “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingach, barcha rasmiy hujjatlar o‘zbek tilida yuritila boshlandi. 1993-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2019-10-22, https://old.gov.uz/oz/news/view/24673

yilda lotin yozuviga asoslangan yangi alifboga o‘tilishi esa tilimiz tarixida yangi bosqich bo‘ldi.

Rus tilshunosi A.M. Kozlyanina bejizga “O‘zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador”, deb ta’kidlamagan. Haqiqatdan ham, o‘zbek tili sofligi, boy lug‘at boyligi va ohangdorligi bilan ajralib turadi. Ammo ko‘cha-ko‘yda “Ziyo Education”, “Baby Clothes”, “Call Center” kabi xorijiy yozuvlar sonining ko‘paygani tashvishli holatdir. Go‘yo o‘zbekcha nom topish qiyin bo‘lgandek. Bunday manzarani ko‘rib, “Biz o‘z yurtda yashayapmizmi?” degan savol tug‘iladi.

Til millatning yuzi, madaniyatining ko‘zgusidir. Shu bois begona yozuvlar va tildagi befarqlik jamiyat ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Endi “Menga nima farqi bor?” degan loqayd fikrdan voz kechish vaqti keldi. Lotin yozuvidagi o‘zbekcha yozuvlarda ham xatolar uchrab turadi. Masalan, Guliston shahridagi “Filtr suv” yozuvini olaylik – bu kabi xatolar til madaniyatiga e’tiborsizlikni ko‘rsatadi. Shunga o‘xshash holatlar OAVda ham uchraydi.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, ilgari dunyoda 7–8 mingta til mavjud bo‘lgan bo‘lsa, hozir ularning soni 6 ming atrofida, shulardan 90 foizi yo‘qolib ketish xavfi ostida. Bu holat asosan o‘z madaniyatidan ajralayotgan kichik xalqlar orasida kuzatiladi. Bunday fojiaga yo‘l qo‘ymaslik uchun biz, yoshlar, birgalikda harakat qilishimiz zarur. Har bir fuqaro tilni asrashda o‘z hissasini qo‘shmog‘i kerak. Biz yoshlar bunday holatlarni oldini olishimiz zarur. Buning uchun esa biz befarqlikni chetga surishimiz kerak. Ko‘cha-ko‘yda yuqoridagi holatlarga duch kelsak, iloji boricha mas’ul shaxslarga murojaat qilishimiz lozim. Nafaqat til bayrami uchun, balki boshqa kunlarda ham tilimizni ulug‘lovchi ko‘rsatuvlar, eshittirishlar berishni yo‘lga qo‘yaylik.

Avvalo o‘z yozishmalarimizga ham e’tibor beraylik. Qaysi millat farzandi ekanligimizni unutmaylik. Tilning yo‘q bo`lib ketishi – bu millat uchun ulkan fojia. Bu jarayonga faqatgina biz yoshlar e’tiborli bo‘lishimiz lozim. Zero, kelajak yoshlar qo‘lidadir.

Ona tilini asrash va rivojlantirish – millatning ma’naviy mustaqilligini ta’minlovchi eng muhim omildir. Shu bois:

- har bir fuqaro o‘z nutq madaniyatini oshirishi;
- ta’lim muassasalarida o‘zbek tili darslarining amaliy jihatlari kuchaytirilishi;
- ommaviy axborot vositalarida tildagi tozalikka doir maxsus ko‘rsatuvlar yo‘lga qo‘yilishi;
- yoshlar o‘rtasida “Til – millat ko‘zgusi” kabi tanlovlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.
- Til – millatning qalbidir. Uni asrash, rivojlantirish va e’zozlash – har birimizning muqaddas burchimizdir. Zero, til bor – millat barhayot.